


# TEEN LAB

TOSHKENT, 2024 YIL IYUN-OKTYABR



## O'SMIRLAR KINO USTAXONASI — BU NIMA?

Agar siz film olmoqchi bo'lsangiz, lekin jarayonni nimadan boshlashni bilmasangiz. Agar siz o'zingiz haqingizda gapirishni, hikoyalar o'ylab topishni, videolarni olishni, tahrirlashni xohlasangiz. Agar siz 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lsangiz va O'zbekistonda yashasangiz, siz bizga keraksiz.

Laboratoriymiz uch qismdan iborat bo'ladi. Ikkita oflays intensiv kurs (iyun va sentyabr oylarida) va ular orasida onlays-qism. Bu vaqt ichida barcha o'quvchilarimiz o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishadi: siz ssenariylar o'ylab topasiz, qahramonlarni qidirasiz, kamerada suratga olasiz, o'zingiz filmda rol o'ynaysiz. Bizning vazifamiz — film qo'rinchli, tushunarsiz yoki juda "jiddiy" emasligiga ishonch hosil qilishdir.

Biz sizga, endilikda o'smirlar ham xuddi kattalarday kino olishi mumkinligini va buning uchun sizda barcha vositalar mavjudligini ko'rsatmoqchimiz. Agar siz hayotingizni kino bilan bog'lashni xohlamasangiz ham, eng muhimi, siz bilan o'zlarigiz va ijodkorlik haqida ko'p gaplashamiz. Hayotingizda san'atni qanday topish haqida gaplashamiz. Laboratoriymizning asosiy qahramoni — siz.

Bizda odatiy tushunchadagi baholar, jarimalar yoki imtihonlar yo'q. Bizning kuratorlarimiz, birinchi navbatda, sizning g'oyalaringizni targ'ib qilish va rivojlantirishga yordam beradigan hammualliflariningizdir. Birinchi intensivlik kursi oxirida bitta umumiy filmni yaratamiz. Uchinchisining oxirida esa — sizning ssenariylaringiz bo'yicha yoziladigan filmlarni yaratamiz. Kuratorlar yordamida guruhlaringiz bilan birgalikda.

Biz maktabdagi kabi davomatni kuzatib bormaymiz, lekin darslar juda qizg'in o'tadi. Ariza topshirishda darslar kuniga 3–4 soat vaqt olishiga tayyor bo'ling. Ertalabdan kechgacha talabalarning ishtiroki talab qilinadigan uchta alohida suratga olish kunlari bo'ladi. Agar biror sababga ko'ra barcha darslarga qatnasha olmasangiz, lekin hali ham laboratoriya qatnashmoqchi bo'lsangiz, iltimos, bizga shu haqda yozing.

## KIMLAR ISHTIROK ETISHI MUMKIN?

Filmni suratga olishga harakat qilganmisiz yoki bu fikr hayolingizga hech kelmaganmi, biz uchun muhim emas. Biz bir biridan butunlay farq qiladigan o'smirlarni qidirmoqdamiz va bizning asosiy mezonimiz: o'zingiz, mamlakatingiz, dunyoingiz haqida gapirish istagingiz. Laboratoriya tanlov kichik imtihon asosida amalga oshiriladi: siz ijodiy so'rovnomanini to'ldirishingiz va qisqa video topshiriqni suratga olishingiz kerak bo'ladi. Agar arizalar juda ko'p bo'lsa, biz ikkinchi turni e'lon qilishimiz mumkin — ularda qo'shimcha kichik topshiriqlar berishimiz mumkin.

## QANDAY VA QACHON MUROJAAT QILISH MUMKIN?

Hujjatlar 1-apreldan 10-maygacha qabul qilinadi. Qabul natijalari 1-iyun kuni saytda paydo bo'ladi. Birinchi intensiv mashg'ulotlar Toshkent shahrida — 10-iyundan 20-iyunga qadar o'tkaziladi.

Laboratoriymizda qatnashish uchun sizga kamida bitta ota-onaning yozma roziligi kerak.

Mashg'ulotlar rus va o'zbek tillarida olib boriladi.

**ARIZA BERISH →**